

## O'QUVCHILARDA "4K" KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA "TANGRAM" METODIDAN FOYDALANISH

*Rajabova Xurriyat O'ktamboyevna*

*Xalq ta'limi a'lochisi*

*Samarqand shahar 38-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada "4K" yondashuvi va uning 4 ta tamoyili haqida batafsil ma'lumotlar berilgan bo'lib, o'quvchilarda "4K" ko'nikmalarini shakllantirishda "Tangram" metodidan foydalanish amaliy jihatdan ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, o'quvchi, 4K" yondashuvi, "Tangram" metodi, innovatsiya, kreativ, kritik.

Ta'lim samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilishini ta'minlash, ta'limning sifat ko'rsatkichini kafolatlashda zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi omillardan biridir.

Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishning yana bir omili, pedagogik-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy texnologiyalarning mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning rivojlanishi - jamiyat rivoji demakdir. Shunday ekan, jamiyat oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri - har tomonlama yetuk, salohiyatli, barkomol va sog'lom avlodni voyaga yetkazishdir. Bu muhim vazifani amalga oshirishda biz, o'qituvchilar albatta, o'qitishning jahon miqyosidagi ilg'or usullari asosida darslarni tashkil etishimiz zarur.

O'qituvchilarning fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishni kafolatlash, "4K" modeli esa o'quvchilarning darsga bo'lgan faolliklarini oshirishga va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Buning uchun esa o'qituvchi har doim izlanishda va harakatda bo'lishi zarur.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol mashqlarni tadbiq etish ta'lim samaradorligi ta'minlovchi omillardir. Boisi, bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi. O'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi.

Ta'limni tashkil etishni asosiy shakli dars bo'lib, uning samaradorligi o'qituvchiga bog'liqdir. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiiq etish esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchi ta'lim shakllari va ta'limda qo'llaniladigan usul hamda vositalarning dars mazmuniga muvofiq to'g'ri tanlash kerak.

Ta'lim tizimidagi har bir yangilik, innovatsion g'oyalar yosh avlodning kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Bugun shiddat bilan ilgarilab borayotgan zamonda XXI asr maktab o'quvchisi uchun zarur ko'nikmalarini o'rgatuvchi – "4K" modeli ishlab chiqildi. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish, yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

"4K" yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

**Kollaboratsiya:** Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

**Kommunikativlik:** O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

**Kreativ fikrlash:** O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

**Kritik (tanqidiy) fikrlash:** Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuvli darslarda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, muloqot ko'nikmasi savol-topshiriqlar orqali rivojlanadi. Bu ko'nikmalarni darslarida qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. "4K" innovatsion yondashuv natijasini o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

O'quvchilarda "4K" ko'nikmalarini shakllantirishda "Tangram" metodidan foydalanishni ko'rib chiqamiz.

"Tangram" metodi


Ushbu metod ta'lim o'quvchilarda kreativ, kritik fikrlash sifatlarini tarbiyalaydi.

Tangram – bu xitoycha ma'lum bir tarzda 7 qismga kesilgan kvadrat bo'lgan jumboq degan ma'noni anglatadi. Lekin ta'limda faqat kvadratlardan emas, boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin. Masalan: to'rtburchak, doira, uchburchak... Ya'ni shakllardan yangi shakllar yasash deb ham tushunish mumkin.

Metodning o'tkazilish tartibi:

O'quvchilarga turli rangdagi, shakllar beriladi va ushbu shakllardan boshqa yangi shakllar tuzish topshiriladi.

Ushbu metodning turli variantlarini ko'rib chiqamiz.



Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida

singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi. Ta'limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarali bo'la olishini ta'minlamaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion muammoli vaziyatlarni qo'yish yoki o'rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo'yilishidir. Biz tavsiya etgan "Tangram" metodi yuqoridagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda o'qituvchilarga yaqindan yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Raximov S. Abu ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – T., "O'qituvchi", 1991-yil
2. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
3. Yo'ldoshev J.G., Shirinov M.K., Ochilov F.I. "Pedagogik diagnostika" o'quv metodik qo'llanma T.:2014